YANGI O‘ZBEKISTONDA EL AZIZ, INSON QADRI AZIZ!

YANGI BEKOBOD

Toshkent viloyati Bekobod tumani ijtimoiy-siyosiy gazetasi

Gazeta 1931-yildan chiqa boshlagan

2026-yil 21-yanvar №2 (8020)

SO‘NGGI TO‘QQIZ YILDA BIZ SIZLAR BILAN, EL-YURTIMIZ BILAN BIEGALIKDA KATTA TARAQQIYOT YO‘LINI BOSIB O‘TDIK. IQTISODIYOTIMIZ YANGIDAN SHAKLLANDI, BOZOR MUNOSABATLARI, IJTIMOIY HIMOYANI KENGAYTIRDIK, QONUN USTUVORLIGINI MUSTAHKAMLADIK. ENG MUHIMI, ISLOHOTLARIMIZ SAMARASINI HAR BIR MAHALLA, HAR BIR XONADON VA HAR BIR INSON KUNDALIK HAYOTIDA HIS QILMOQDA

SHAVKAT MIRZIYOYEV

JARAYON

PREZIDENT MUROJAATNOMASI – DAVLAT SIYOSATI VA XALQ MANFAATLARI MUSHTARAKLIGI

Bekobod tumanida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasining mazmun-mohiyati, unda belgilangan ustuvor vazifalar hamda amalga oshirilayotgan islohotlarning ahamiyatiga bag‘ishlangan targ‘ibot tadbiri bo‘lib o‘tdi. Tadbirda Toshkent viloyati hokimi Z.Mirzayev, Bekobod tumani hokimi Z.Nizomiddinov, Toshkent davlat agrar universiteti rektori N.Oblomuradov,



tuman tashkilotlari rahbarlari, nuroniylar, faol yoshlar hamda tumandagi “Bo‘ston”, “Guliston” va “Istiqlol” mahallalari aholisi ishtirok etdi.

Tadbirda viloyat hokimi Zoyir Mirzayev Prezident Murojaatnomasida ilgari surilgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, hududlarni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalarini takomillashtirish, shuningdek, fuqarolarning turmush farovonligini oshirishga qaratilgan ustuvor yo‘nalishlar yuzasidan atroflicha tushuntirishlar berdi.

Tadbir davomida Murojaatnomada belgilangan vazifalarning joylarda ijrosini ta’minlash, davlat organlari faoliyatida ochiqlik va mas’uliyatni kuchaytirish, mahallalarning ijtimoiy faolligini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Ta’kidlanganidek, har bir islohot odamlarning turmush farovonligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, buning uchun mahalla – eng muhim bo‘g‘in hisoblanadi. Aynan mahallalarda aholining ehtiyojlari, muammolari va tashabbuslari shakllanadi va ularni joyida o‘rganish hamda tezkor hal etish imkoniyati tug‘iladi.

Aholi bilan ochiq muloqot shaklida o‘tgan uchrashuvda fuqarolarni qiziqtirgan savollarga batafsil



javoblar berilib, mavjud muammolar va ularning yechimlari yuzasidan fikr almashildi.

Mazkur targ‘ibot tadbiri Prezident Murojaatnomasida belgilangan maqsad va vazifalarning mazmunini keng jamoatchilikka yetkazish, aholining davlat siyosatiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash hamda islohotlar jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sarvinoz SHERALIYEVA tayyorladi.

MAHALLA — ISLOHOTLARNING TAYANCH NUQTASI

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot hamda aholi farovonligini oshirishga qaratilgan ustuvor vazifalar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasida o‘z ifodasini topgan. Ushbu muhim hujjat mazmun-mohiyatini aholi o‘rtasida keng targ‘ib qilish, belgilangan vazifalar va islohotlarning ahamiyatini tushuntirish maqsadida Bekobod tumanida targ‘ibot tadbiri tashkil etildi.

Mazkur tadbir “Do‘stlik”, “O‘zbekiston” va “O‘rikzor” mahallalari aholisi ishtirokida bo‘lib o‘tdi. Unda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi mas’ullari A.Azizov hamda I.Mavlonov, Toshkent viloyati ishchi guruhi a’zolari, shuningdek, Bekobod tumani hokimi Z.Nizomiddinov va tuman tashkilotlari rahbarlari qatnashdi. Ular Prezidentimiz Murojaatnomasida belgilab berilgan ustuvor yo‘nalishlar, islohotlarning asosiy maqsadlari, ijtimoiy himoya, bandlik, ta’lim, sog‘liqni saqlash, mahalla tizimini rivojlantirish hamda aholi turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan muhim masalalar yuzasidan atroflicha tushuntirishlar berdilar.



Tadbir ochiq muloqot va savol-javoblar shaklida o‘tdi. Aholi tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar, taklif va savollar mutasaddilar tomonidan batafsil ko‘rib chiqildi. Bu esa davlat siyosatining mazmunini joylarda yanada chuqur anglash, islohotlarning hayotiy ahamiyatini tushunishga xizmat qiladi.

Targ‘ibot tadbiri davomida Prezidentimiz Murojaatnomasida ilgari surilgan g‘oya va tashabbuslar xalq manfaatlariga xizmat qilishi, har bir hudud va mahalla hayotida amaliy natija berishi ta’kidlandi. Eng muhimi, bunday uchrashuvlar aholining davlat boshqaruvidagi ishtirokini kuchaytirish, fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi qayd etildi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Bekobod tumanida o‘tkazilgan ushbu targ‘ibot tadbiri Prezident Murojaatnomasining mazmun-mohiyatini aholi ongiga yetkazish, amalga oshirilayotgan islohotlarga nisbatan ishonch va daxldorlik tuyg‘usini mustahkamlashga xizmat qildi. Bu kabi tadbirlar kelgusida ham davlat va xalq o‘rtasidagi ochiq muloqotni yanada rivojlantirishga mustahkam zamin yaratadi.

Akrom MAMADALIYEV.

Qutlov

XAYRIDDIN SULTONOV 70 YOSHDA

Taniqli adib, el-sevgan yirik ijodkor, yetuk davlat va jamoat arbobi, yuqori tashkilotchi, minglab ijodkorlarning ustozi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi Xayriddin Sultonovga tavalludining 70 yilligi munosabati bilan “O‘zbekiston Respublikasi Xalq yozuvchisi” faxriy unvoni berilgani haqidagi xabar barcha yurtdoshlarimiz qatori biz, bekobodliklarni ham behad quvontirdi.

Xayriddin Sultonov o‘tgan asrning 70-yillarida jurnalistika sohasida faoliyat boshlagan davridayoq ko‘zga tashlanib, ketma-ket chop etilgan nasriy asarlari, video va badiiy filmlar ssenariysi muallifi sifatida o‘z muxlislarining hurmatiga sazovor bo‘ldi, xalqimiz e’tiborini qozona oldi.

Yozuvchining “Bir oqshom ertagi”, “Onamning yurti” asarlari, “Boburiynoma” ma’rifiy romani, “To‘qchilik va yo‘qchilik”, “Saodat sohili” kitoblari qo‘lma-qo‘l bo‘lib o‘qildi, kitobxonlarning sevimli asarlariga aylandi. Shuningdek, Xayriddin Sultonov ssenariysi asosida yaratilgan “Changak”, “Moziydan bir sahifa”, “Mehrobdan chayon” videofilmlari o‘n minglab tomoshabinlarni zangori ekran atrofida jamlab, ularga yuksak ma’naviy ruh bag‘ishladi.

Ayniqsa, yaqinda taqdimoti bo‘lib o‘tgan “Yaldo kechasi” nomli tarixiy romani mamlakatimiz adabiy hayotiga o‘ziga xos voqelik bo‘lgani bilan ahamiyatlidir.

– “Yaldo kechasi” romani “O‘tkan kunlar” romani kabi to‘laqonli, qayg‘uli, shu bilan birga nekbin asar. Mashhur “O‘tkan kunlar” romanining davomi sifatida yozilgan bu asar avvalo Abdulla Qodiriy va uning safdoshlari shaxsiga yuksak ehtirom namunasi o‘laroq, dunyoga kelganini ta’kidlash joiz – deydi O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, O‘zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid.

Darhaqiqat, ushbu asar mamlakatimizda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan amalga oshirilayotgan ochiqlik va erkinlik siyosatining amaliy hosilasi sifatida dunyoga keldi. Asar istiqlolimizni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash, Vatanga, mustaqillik g‘oyalariga sadoqat ruhini yosh avlodga singdirishdek ezgu maqsad-muddaolarni o‘zida ifoda etishi bilan qadrlidir.

Biz, bekobodliklar, ustoz adibni tavalludining 70 yilligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan “O‘zbekiston Respublikasi Xalq yozuvchisi” faxriy unvoniga sazovor bo‘lganliklari munosabati bilan qizg‘in muborakbod etamiz. Ularga yangi-yangi asarlari bilan adabiyotimiz va madaniyatimiz rivojiga bundan-da salmoqli hissa qo‘shishda mustahkam sihat-salomatlik, cheksiz ijodiy ilhom va ulkan yutuqlar tilaymiz.

Donishmand bobolarimizning “Birlashgan – o‘zar, birlashmagan – to‘zar”, degan hikmatli maqoli bor. Chindan ham, qarang, kimki birlashdi – hayotda o‘zdi, g‘alabaga erishdi. Kimki birlashmadi – to‘zib, yo‘q bo‘lib ketdi. Tarix davomida qanday og‘ir sinovlarga duch kelmaylik, biz avvalo birdamlikdan kuch oldik. Mashaqqatli kunlarda odamlarimiz, mahalla ahli yelkadosh bo‘lib qiyinchiliklarni yenggan. Oila – oilaga, qo‘shni – qo‘shniga ko‘mak berib yashagan. Biz mana shunday o‘ta noyob qadriyatimizga doimo sodiq qolishimiz, yosh avlodimizni ayni shu ruhda tarbiyalashimiz kerak

Shavkat Mirziyoyev



NURLI ISTIQBOL *(Qasida)*

Inson umri soniyalar, daqiqalar, soatlar-u kunlar, oylar-u yillar bilan belgilab berilar ekan, har birining tarovati-yu jozibasi, go‘zalligi-yu ko‘rki, qadri-yu qimmati bo‘lakchadir. Hayotning huda-behudaga sarflangan, orzu va maqsadsiz o‘tkazilgan, intilishsiz yashalgan bir lahzasi ham oradan vaqtlar o‘tib o‘z o‘rnini bildirib qo‘yadi. Demak, zamon-u makon izmidan yiroqlolmay yashayotgan odamning vaqtdan umidi ko‘p bo‘lganidek, vaqtning ham odamdan umidi bisyor...

2025-yil... Bir-birini beayov quvlab kechgan uch yuz oltmish besh kun jonajon O‘zbekistonimiz tarixi solnomasi hamda xalqimiz qalbiga baxtli, chinakam dorilomon va fayzli kunlar o‘laroq bitilganini bilish uchun uzoqqa borish shart emas. Buning uchun o‘lkadagi bunyodorliklar, insonlar yuzidagi xushchaqchaqlik, ko‘nglidagi rizolikni ko‘rish va anglash yetarli..

Ushbu bitiklarni ana shunday ojizona anglovim mevasi va bundan ko‘nglimni to‘lqinlantirgan hayajon hamda ulkan muhabbat ifodasi sifatida qabul qilgaysiz, aziz o‘quvchi!

Tamaddun sahniga nurini sochib,
Yil kelar yillarning ustidan oshib,
Ona yurt-u elni ardoqlar jo‘shib,
Toki mahv bo‘larkan har yovuz xayol,
Uch yuz oltmish besh kun – nurli istiqbol!

Gohida qor yog‘ar, yomg‘ir yog‘ar goh,
Bariga chidaydi umr – so‘lmas bog‘,
Hayot kitobiga tushirmaydi dog‘,
Orzu va niyatlar topmaydi zavol,
Uch yuz oltmish besh kun – nurli istiqbol.

Qir-adir yastanib oftobga boqqan,
Ko‘ksiga rangbarang chechaklar taqqan,
Irmoqlar chopqillab daryoga oqqan,
Qaydadir intizor kutgaydir visol,
Uch yuz oltmish besh kun – nurli istiqbol.

Bir tomon Xorazm, bir yon Samarqand,
Bunda har kim ijod ishqi biland band,
O‘lkani bezamoq – eng go‘zal talant,
Kimki jim o‘tirsa qismati malol,
Uch yuz oltmish besh kun – nurli istiqbol.

Xush nasimlar kelar Qoraqalpoqdan,
Navoiy, Jizzax-u Buxoro yoqdan,
Har kim baxt tuymoqda chin yashnamoqdan,
Ko‘rk-u tarovati go‘yoki bilol,
Uch yuz oltmish besh kun – nurli istiqbol.

Qashqadaryo yashnar ko‘rki ko‘z olib,
Surxondaryo borar ziyoga to‘lib,
Sirdaryo go‘zallik ichida qolib,
Ko‘z-ko‘z qilar bunda, ko‘rsatar jamol,
Uch yuz oltmish besh kun – nurli istiqbol.

Andijon, Namangan, go‘zal Farg‘ona,
Durdonlalar ichra bo‘ldi durdona,
Bugun saodatin aylar to‘yona,
Yigit-u qizlari, har erkak, ayol,
Uch yuz oltmish besh kun – nurli istiqbol.

Aytsam, bitmas Vatan jozibasini,
Shahar-u qishloqlar xush nafasini,
Har ko‘cha oshirar dil havasini,
Tillardan to‘kilar har kalomda bol,
Uch yuz oltmish besh kun – nurli istiqbol.

Tonglardan tonglarga kelganida nur,
Qalblarga zavq to‘ldi, ko‘zlarga surur,
Maqsadi yuksakning tolesi shudir,
Qo‘shqo‘llab uzatsa hayot olaqol,
Uch yuz oltmish besh kun – nurli istiqbol.

Eng go‘zal muhabbat dilga baxshida,
Kunlarki lazzati yilga baxshida,
Umr shu Vatanga, elga baxshida,
O, shunday umrlar tuganmas, halol,
Uch yuz oltmish besh kun – nurli istiqbol.

Bugunning ertaga zo‘r imkoni bu,
Ajdodlar istagan sharaf-shoni bu,
Saodat qo‘shig‘in aytmoq oni bu,
Birlashmay turmoqlik kelgaydir mahol,
Uch yuz oltmish besh kun – nurli istiqbol.

Ko‘priklar solindi qit’alar aro,
Ishonch ham bog‘landi sof dillar aro,
Birdamlik qo‘l tutdi bu ellar aro,
Diltortar suhbatlar endi bemalol,
Uch yuz oltmish besh kun – nurli istiqbol.

Olg‘a odimlaydi shiddatli karvon,
Yuksak maqsadlar-u ezgulik tomon,
Do‘stlik mujdasida iqboli ayon,
Ko‘zlari chaqnagan, yuzlari ham ol,
Uch yuz oltmish besh kun – nurli istiqbol.

Bir kunga jo bo‘lsa agarki umr,
Shu yurtga berilgay, aylanib faxr,
O‘zbekiston nomi qalblarda axir,
Bu tuyg‘u dillarga joylansin havol,
Uch yuz oltmish besh kun – nurli istiqbol.

Bugun shahd borardir xalq bilan birga,
Har yoniq, har uyg‘oq qalb bilan birga,
Unga tayanch bo‘lmoq ezgu aqida,
Niyatlar porlasa misoli hilol,
Uch yuz oltmish besh kun – nurli istiqbol.

Har kimning tolesi quyoshday kulgay,
O‘ksingan ko‘ngillar quvonchga to‘lgay,
Masrurlik abadiy hamrohi bo‘lgay,
Farzandlar ulg‘ayar bamisli nihol,
Uch yuz oltmish besh kun – nurli istiqbol.

Daqiqa, soatlar imkonlar berdi,
Saflarda mardlar-u maydonlar turdi,
Sharafli mehnatlar rag‘batlar ko‘rdi,
Ulg‘ayib boradi umr bezavol,
Uch yuz oltmish besh kun – nurli istiqbol.

O‘zgalar buzmasin o‘rtani harchand,
Rishtalar bog‘langay do‘stlikda garchand,
Bunga guvoh erur qadimiy Xo‘jand,
Azaldan tomirlar mustahkam alhol,
Uch yuz oltmish besh kun – nurli istiqbol.

Birlashmoq yo‘lida turkiy el bugun,
Quchog‘ini ochar, deydi “Kel!” bugun,
Shu emasmi odil, go‘zal yo‘l bugun?!
Qardoshlar diydorin shodliklari mo‘l,
Uch yuz oltmish besh kun – nurli istiqbol.

Besh og‘a-iniday diydorlashdilar,
Ko‘ngildan ko‘ngilga yo‘llar ochdilar,
Dovondan dovonga birga oshdilar,
Kelajak ufq yanglig‘ chorlar bedallol,
Uch yuz oltmish besh kun – nurli istiqbol.

Har kunga bag‘ishlab ko‘rk-u latofat,
Yuksalar tobora bilim, ma’rifat,
Bir yonda futbol-u bir yonda shaxmat,
Jahonni aylaydi maftun hamda lol,
Uch yuz oltmish besh kun – nurli istiqbol.

Shiddatkor o‘g‘il-qiz azmini ko‘ring,
Zafarlar keltirgan bazmini ko‘ring,
Qalbdagi Vatanning rasmini ko‘ring,
Boqing, qalblar toza, nigohlar zilol,
Uch yuz oltmish besh kun – nurli istiqbol.

Oltin avlod bugun chin iftixordir,
Marralar oshmoqqa yana tayyordir,
Shunday millat mudom baxtlarga yordir,
Ertasi bugundan ko‘ringay yaqqol,
Uch yuz oltmish besh kun – nurli istiqbol.

Daryo-yu tog‘lardan kechib hayrixoh,
Yovuzlik, makrdan aylaydi ogoh,
Ezgu niyatlarga bo‘lar chin panoh,
Yaxshilik istarga qo‘shilar darhol,
Uch yuz oltmish besh kun – nurli istiqbol.

Har kun otayotgan iqbol tonggidir,
Baralla yangragan o‘zlik bonggidir,
G‘oya ham, amal ham, yo‘l ham yangidir,
Axtarmoq ne derkor o‘zgadan misol,
Uch yuz oltmish besh kun – nurli istiqbol.

Goh baxt eshik qoqar, goho kelar g‘am,
Qadri bo‘lakchadir har lahzaning ham,
Buni sezib tursa bo‘lgani odam,
Soniyalar hatto ketmasin uvol,
Uch yuz oltmish besh kun – nurli istiqbol.

Toki bu zaminda oftob ham porlar,
Insonni yashashga umrbod chorlar,
Kun-u tun qadrini bilgan shunqorlar,
Zahmat-u mehnatda topgaydir kamol,
Uch yuz oltmish besh kun – nurli istiqbol.

Yashashdan aslida maqsad ne axir,
G‘animat kunlarni berganku taqdir,
Bemazmun, besamar kelmasin oxir,
Yaxshilik qilolsa inson bir misqol,
Uch yuz oltmish besh kun – nurli istiqbol.

Qaydadir olovlar yonmoqda tinmay,
Mazlumlar ohiga parvo ham qilmay,
O‘zining so‘nggini hatto o‘ylamay,
Ming afsus bo‘lmasa insoniy a’mol...
Uch yuz oltmish besh kun – nurli istiqbol.

Bu she’rim kun qadrin anglaganlarga,
Osuda hayotni tanlaganlarga,
Yor bo‘lgaydir qalbim tinglaganlarga,
Albat peshvoz chiqar damlar guljamol,
Uch yuz oltmish besh kun – nurli istiqbol.

Deymizki, bu dunyo baland-pastlikdir,
Yomoni bu so‘zni anglamaslikdir,
Bugunning talabi hamnafaslikdir,
Birodarim, buni tushun, kelaqol,
Uch yuz oltmish besh kun – nurli istiqbol.

Dillarda shukrona nafasi yelar,
Ulug‘ maqsad ila ulug‘ xalq kelar,
Bu diyor ertasi, iqboli kular,
Bu shundayin buyuk, bardavom bir yo‘l,
Uch yuz oltmish besh kun – nurli istiqbol.

Anjuman saroyi bo‘ldi nurafshon,
Sarbonim sha’niga aytib sharaf-shon,
– O‘rgansa arziydi Sizdan deb jahon,
Tan berib mehmon ham so‘z aytdi: – Qoyil!
Uch yuz oltmish besh kun – nurli istiqbol.

Bugun mamlakatda ko‘tarinki ruh,
Dillarga yo‘llaydi tugamas shukuh,
Kunlarki chiroy va fayzda tengi yo‘q,
Sen esa ularni yashamoqdan tol,
Uch yuz oltmish besh kun – nurli istiqbol.

Tinchlik qo‘rg‘oniga yetmasa putur,
O‘lkam ravnaq topgay, elim chin huzur,
Pokiza yuraklar tilagi budir:
Barq ursin bu bog‘lar aylab kasbi-hol,
Uch yuz oltmish besh kun – nurli istiqbol.

Do‘stim!
O‘rningdan tur yo‘l boshidasan,
Bilaman, ne tashvish taloshidasan,
Quvvat ol ulug‘lik quyoshidan san,
So‘ng yurak to‘rida Vatan quraqol,
Uch yuz oltmish besh kun – nurli istiqbol.

Tan jonda, jon esa, bil, tanda aziz,
Otashnafas qushlar chamanda aziz,
Har kun bo‘lsin desang Vatanda aziz,
Hayotni anglagin, turma bo‘lib zol,
Uch yuz oltmish besh kun – nurli istiqbol.

Inson bir kun baxtli, bir kuni g‘amnok,
Xato umr yo‘lin yengil sanamoq,
Qalb ishi – kunlardan kunga bo‘ylamoq,
Buni kim eplasa etmasdan arz-hol,
Uch yuz oltmish besh kun – nurli istiqbol.

Toki olam aro odam tirikdir,
Yillar kechirmoqqa arzigulikdir,
Har kunki asrga tatigulikdir,
Eldoshim, bu tuyg‘u ta’min sezaqol,
Uch yuz oltmish besh kun – nurli istiqbol.

Faxrim bitmas so‘zim nihoyasida,
Qismatning ulug‘vor hikoyasida,
Shonli istiqbolning himoyasida,
Yurtboshim shashtidan dunyo ibrat ol,
Uch yuz oltmish besh kun — nurli istiqbol!

Uch yuz oltmish besh kun – bu O‘zbekiston,
Uch yuz oltmish besh kun – bir ulkan doston,
Uch yuz oltmish besh kun – hur, dorilomon,
Uch yuz oltmish besh kun – mangu istiqlol,
Uch yuz oltmish besh kun – nurli istiqbol!

O‘tkir RAHMAT.

DEPUTAT MINBARI

MUROJAATNOMA – TARAQQIYOT VA ADOLAT SARI DADIL QADAM

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida O‘zbekiston aholisi 38 milliondan oshganini alohida ta’kidlab, xalqimizning mehnati va matonati, yoshlarimizning yutuqlari yurt ravnaqiga munosib hissa bo‘layotganini qayd etdi. Shuningdek, mashaqqatli va sharafli mehnati bilan dunyoda e’tirof topayotgan, ertangi kunga ishonch bilan dadil odimlayotgan, matonatli va g‘ururi baland millat ekanligimiz alohida urg‘ulandi.



Davlatimiz rahbarining ta’kidlashicha, o‘zgarishlarni kutib yashash emas, balki ularni o‘z aql-zakovati va mas’uliyatli mehnati bilan yaratish millatning kuch-qudratini namoyon etadi.

Murojaatnomada 2026-yilda amalga oshiriladigan eng muhim ustuvor yo‘nalishlarga alohida to‘xtalib o‘tildi. Xususan, birinchi ustuvor yo‘nalish sifatida mahalla infratuzilmasini yanada yaxshilash, ularga Yangi O‘zbekiston qiyofasini olib kirish belgilandi.

Ikkinchi ustuvor yo‘nalish — iqtisodiyotni texnologik va innovatsion o‘sish modeliga o‘tkazish, uchinchi ustuvor yo‘nalish esa ichki bozorda talabni rag‘batlantirish masalasiga bag‘ishlandi.

To‘rtinchi ustuvor yo‘nalish kasblarni rivojlantirish va yangi mehnat bozori arxitekturasini yaratishdan iborat bo‘lsa, beshinchi yo‘nalish ekologik muvozanatni ta’minlash, “yashil” energetikani rivojlantirish hamda suv resurslaridan oqilona foydalanishga qaratildi.

Oltinchi ustuvor yo‘nalish doirasida esa zamonaviy davlat boshqaruvi va adolatli sud-huquq tizimini shakllantirish borasidagi islohotlar izchil davom ettirilishi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari yurtimizda kambag‘allik darajasi yil boshidagi 8,9 foizdan 5,8 foizga tushganini ta’kidladi. Shuningdek, O‘zbekiston Sharq va G‘arb, Shimol va Janub mamlakatlari bilan hamkorlik ko‘priklarini izchil barpo etib borayotgani qayd etildi.

Jahon banki tomonidan e’lon qilinadigan davlatlarning texnologik yetuklik indeksida O‘zbekiston 71 pog‘ona yuqorilab, dunyoning top – 10 mamlakati qatoridan joy olgani ham e’tirof etildi.

Ayniqsa, 2026-yilda ichki temir yo‘llarni rivojlantirish bo‘yicha besh yillik dastur qabul qilinishi natijasida 110 kilometr temir yo‘l tarmog‘i qurilib, Bo‘ka, Piskent, Bekobod, Boyovut tumanlari hamda Nurafshon shahri poytaxt bilan bog‘lanishi aholining uzog‘ini yaqin, og‘irini yengil qilishiga xizmat qilishi ta’kidlandi.

Shuningdek, Prezidentimiz so‘nggi ikki yilda ayollar va bolalarga nisbatan oilaviy zo‘ravonlik holatlari bo‘yicha 2 mingdan ziyod jinoyat aniqlanganini qayd etib, xotin-qizlarning qadr-qimmatini joyiga qo‘yish va farzandlarimizni himoya qilish har doim erkaklar uchun sha’n va g‘urur masalasi bo‘lib kelganini alohida ta’kidladi. Ayolni o‘z muammosi bilan yolg‘iz tashlab qo‘yishga hech kimning haqqi yo‘qligi, bu holat yuksak ma’naviyatga ega, oilani muqaddas biladigan xalqimizga aslo yarashmasligi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari buyuk maqsadlarga erishishda mahalla tizimining o‘rni va ta’siri beqiyos ekanini alohida ta’kidladi. Chunki mahalla tinch va ahil bo‘lsa, jamiyat tinch va hamjihat bo‘ladi. Qiyin kunlarda odamlarimiz bir-biriga yelkadosh bo‘lib, oila – oilaga, qo‘shni – qo‘shniga ko‘mak berib yashab kelgan. Ushbu noyob qadriyatga sodiq qolish va yosh avlodni shu ruhda tarbiyalash zarurligi qayd etildi.

Millati, tili va dinidan qat’i nazar, 38 millionlik xalqni birlashtiradigan ulug‘ g‘oya — Vatan va xalq manfaatidir. Bu maqsadga erishishda mahalla tizimining o‘rni muhim ekani alohida urg‘ulandi.

Shu bois, Prezidentimiz 2026-yilni mamlakatimizda “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deb e’lon qildi.

Murojaatnomada yana bir muhim siyosiy masalaga — davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratildi. Xususan, 2026-yil 1-yanvardan boshlab mahalliy Kengash raisi va hokim lavozimlarini bir-biridan ajratish, ochiqlik, shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirish yangi bosqichdagi asosiy vazifalardan biri ekani ta’kidlandi. Bu norma yangilangan Konstitutsiyada ham mustahkamlab qo‘yilgan.

Vakolatlarning aniq taqsimlanishi mahalliy boshqaruvda mutlaqo yangi sifat bosqichini boshlab beradi. Kengash va hokimlik vakolatlarining ajratilishi hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda ochiqlik va jamoatchilik ishtirokini kengaytiradi.

“Kuchli Kengash, hisobdor va tashabbuskor hokim” tamoyili asosida sog‘lom hamkorlik shakllanib, tashabbuslar keng qo‘llab-quvvatlanadi.

Farmonga muvofiq, jamiyat va davlat hayotining muhim masalalariga oid 33 ta vakolat mahalliy Kengashlar ixtiyoriga o‘tkazildi. Bu esa ijro hokimiyati va vakillik organlari faoliyatining samaradorligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu siyosiy islohotlar mahalliy boshqaruv madaniyatini tubdan yangilash, qonuniylikni mustahkamlash va fuqarolarning davlatga bo‘lgan ishonchini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Men deputat sifatida mazkur islohotlar xalq vakillik organlarining rolini kuchaytirish, aholi manfaatlariga xizmat qiluvchi samarali tizimni shakllantirishga qaratilgan, deb hisoblayman. Shuningdek, “Mahalla yettiligi – Kengash – Senat” uch bo‘g‘inli hamkorlik tizimi orqali hududlarni rivojlantirish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish yo‘lida barcha deputatlar va mahalla faollarini safarbarlik va fidoyilikka chorlayman.

Yoqutxon MO‘MINOVA,
Xalq deputatlari Bekobod tuman Kengashi raisi.

BUGUNNING GAPI

RO‘YXATGA OLISHDAN KEYIN ORTIQCHA SOLIQ KELIB CHIQMAYDI(MI?)

Joriy yilning 15-yanvaridan mamlakatimizda aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish boshlandi. So‘nggi kunlarda fuqarolar anketa to‘ldirish jarayonida ayrim savollar tufayli tushunmovchilik va e’tirozlarga duch kelishmoqda.

Aholi tomonidan eng ko‘p berilayotgan savollarga Milliy Statistika qo‘mitasi matbuot xizmati rahbari Usmon Abdurasulov javob berdi.

– Nega “xo‘jalik mulki bormi?” degan savolda chorvasi yo‘q oilalardan ham majburiy ravishda “ha” javobini belgilash talab qilinmoqda?

– Anketadagi “Uy xo‘jaligi a’zolarining qishloq xo‘jalik yerlari yoki chorva mollari va parrandalari bo‘lganmi?” degan savoldagi “Ha, bor” javobi faqat chorvaga emas, balki quyidagilarga ham taalluqli: tomorqa yer uchastkasi, shaxsiy hovli, bog‘ yoki ekilgan daraxtlar, ekin ekiladigan yer maydoni.

Shu sababli, hatto chorvasi bo‘lmagan, ammo tomorqasi yoki yer uchastkasi mavjud bo‘lgan xo‘jaliklar ham “ha, bor” variantini belgilashi talab etilmoqda.

– Ro‘yxatga olishdan keyin ortiqcha soliq kelib chiqmaydimi?

– Aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish – bu statistik tadbir bo‘lib, u soliq to‘lash bilan bog‘liq emas.

Siz bergan ma’lumotlar faqat statistika uchun yig‘iladi. Soliq va boshqa organlarga taqdim etilmaydi.

Ro‘yxatga olishning maqsadi – mamlakatda aholi soni, turmush sharoiti, qishloq xo‘jaligi holati, ya’ni qaysi hududda qancha mahsulot yetishtiriladi va bu aholi ehtiyojini qoplaydimi, degan savollarga aniq javob olishdir.

Shu asosda davlat oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, qishloq xo‘jaligini qo‘llab-quvvatlash, infratuzilmani rivojlantirish hamda aholi uchun zarur ijtimoiy xizmatlarni to‘g‘ri rejalashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

– Savolnomani to‘ldirdim, lekin sertifikat chiqmadi.

– Savolnomani to‘ldirishda birinchi va uchinchi qatorda keltirilgan shakllar belgilansa, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashayotgan fuqarolar hamda 12 oy va undan ortiq muddat davomida O‘zbekiston hududida yashayotgan chet el fuqarolari uchun savolnomani to‘ldirish yakunida sertifikat chiqadi.

Agar siz ikkinchi va to‘rtinchi qatordagi shakllarni belgilab savolnomani to‘ldirsangiz sertifikat berilmaydi. Chunki unda maxsus va ijtimoiy muassasa hamda tashkilotlarda yashayotgan shaxslar, shuningdek, O‘zbekiston hududida 12 oydan kam muddatda bo‘lgan xorij fuqarolari uchun savolnoma ochiladi.

– Oilamizdan bir kishi barchamizni ro‘yxatdan o‘tkazdi. Shu yetarlimi yoki alohida qayta ro‘yxatdan o‘tishimiz kerakmi?

– Bir kishi butun oilasini ro‘yxatdan o‘tkazishi mumkin. Ma’lumotlar to‘liq va to‘g‘ri taqdim etilsa, bu yetarli hisoblanadi.

– Ro‘yxatdan o‘tdim, lekin sertifikatimni yuklab ololmayapman.

– Agar siz ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lsangiz, OneID tizimi orqali saytga kirib, o‘ng tomon yuqori qismda joylashgan ism-familiya ustiga bosgan holda sertifikatni yuklab olishingiz mumkin.



– Savolnomada sotixni yoza olmayapman.

– 1-shaklning 2-savolida yakka tartibdagi hovli yoki kvartiraning umumiy qurilish maydoni kvadrat metrda butun sonlarda ko‘rsatiladi.

5-shaklda esa umumiy yer maydoni va qishloq xo‘jaligi yer maydoni sotixda ko‘rsatiladi.

– Savolnomada birinchi shaxs deganda kim nazarda tutiladi?

– Birinchi shaxs bu – ma’lumotlarni to‘ldiruvchi shaxs hisoblanadi. Savolnomada ma’lumotlari to‘ldiriladigan keyingi oila a’zolari birinchi shaxsga nisbatan qarindoshlik darajasi belgilanib, kiritiladi.

– So‘rovnomani xatolik bilan to‘ldirgan bo‘lsam, qaytadan kiritishim mumkinmi?

– Ha. Agar ma’lumotlar xatolik bilan kiritilgan bo‘lsa, 31-yanvarga qadar qaytadan onlayn ro‘yxatdan o‘tish imkoniyati mavjud.

– Men hozirda boshqa tumanda istiqomat qilaman, doimiy propiskam esa boshqa hududda. Savolnomada qaysi joyni kiritishim kerak?

– Ro‘yxatdan o‘tish jarayonida fuqaro aynan hozirgi vaqtda, ya’ni, ro‘yxatga olish davrida yashab turgan joyini ko‘rsatishi lozim.

– Chet eldagi oila a’zolarimizni ham ro‘yxatga kiritamizmi?

– Ha, hozirda ma’lum sabablarga ko‘ra xorijda vaqtincha bo‘lib turgan oila a’zolaringizni ham ro‘yxatdan o‘tkazishingiz mumkin. Shuningdek, ular o‘zlari boshqa davlatda bo‘lib turgan holatda ham census.stat.uz sayti orqali onlayn ro‘yxatdan o‘tishi mumkin.

“Toshkent haqiqati” gazetasining 2026-yil 21-yanvardagi 6-sonidan olindi.

DOLZARB MAVZU

Bugungi kunda mamlakatimizda giyohvand moddalar savdosi va iste’moliga qarshi keskin choralar ko‘rilayotganiga qaramay, turli xil yangi sintetik giyohvandlik vositalari hamda kuchli ta’sir qiluvchi moddalar paydo bo‘layotgani achinarli holatdir. Eng xavotirlisi, bunday zaharli moddalar ijtimoiy tarmoqlar orqali turli usullar bilan yurtimizga noqonuniy kirib kelayotgani, ayrim hollarda esa insonlarning o‘zi ularni yashash xonadonlarida parvarishlab, iste’mol qilayotgani kuzatilmoqda. Hayotga yengil-yelpi qaraydigan ayrim yoshlarning hanuz ushbu balo domiga tushib qolayotgani barchamizni befarq qoldirmasligi lozim.

GIYOHVANDLIK – UMR ZAVOLI



Bekobod tumanida 2025-yil davomida jami 54 ta jinoyat sodir etilgan bo‘lib, ularning aksariyatini yoshlar tashkil etadi. Jumladan, 2025-yil 24-oktyabr kuni soat 19:00 larda Bekobod tumani huquqni muhofaza qiluvchi organlari tezkor xodimlari tomonidan Bekobod tumani “Bobur Mirzo” MFY markazida joylashgan oziq-ovqat do‘koni oldida harakatlaridan shubha uyg‘otgan fuqaro XXX to‘xtatilgan. Tekshiruv jarayonida, ikki nafar holis ishtirokida uning yonidan oq rangli sellofan paket ichida o‘tkir hidli, jigarrang rangli, shirali, dumaloq shakldagi giyohvand modda topilib, ashyoviy dalil sifatida hujjatlashtirib olingan.

Ayni paytda ayrim o‘quvchi-yoshlar, hatto o‘rta yoshdagi insonlar orasida nafaqat giyohvand moddalar, balki kuchli ta’sir qiluvchi, mast qiluvchi va qaramlikni yuzaga keltiruvchi dori vositalarining ham keng tarqalayotgani tashvishli holatdir. Jamoat joylari yoki xilvat hududlarda ushbu zaharli moddalarni iste’mol qilinayotganini ko‘rib, beparvolik bilan yonidan o‘tib ketish insoniylik nuqtayi nazaridan to‘g‘ri emas.

Inson hayotiga rahna soluvchi bunday illatlarga qarshi kurashishda faqat jismoniy choralar bilangina cheklanib qolmasdan, ma’naviy va ruhiy barqarorlikni mustahkamlash, yoshlarga insoniy fazilatlar — halollik, ilmga hurmat, vatanparvarlik tuyg‘ularini singdirish orqali ularning kelajagini himoya qilish barchamizning muqaddas burchimizdir.

Xushnud NURIDDINOV,
Bekobod tuman prokurori yordamchisi.

OGOHLIK

IS GAZIDAN ZAHARLANISH HOLATIDA QANDAY CHORALAR KO‘RISH KERAK?



Is gazi (uglerod oksidi) rangsiz, hidsiz va nihoyatda zaharli gaz bo‘lib, u asosan ko‘mir, tabiiy gaz hamda o‘tin cho‘g‘larining to‘liq yonmasligi oqibatida hosil bo‘ladi. Ushbu gaz organizmga tushganda qon tarkibidagi gemoglobin bilan birikib, kislorodning tana bo‘ylab tarqalishini keskin cheklaydi. Natijada insonda kislorod yetishmovchiligi yuzaga kelib, hushdan ketish holati sodir bo‘lishi mumkin.

Gazdan zaharlanish holati yuz berganda, shifokor yetib kelgunga qadar birinchi yordam choralarini to‘g‘ri ko‘rsatish muhim ahamiyatga ega. Avvalo, jabrlanuvchini zudlik bilan gaz to‘plangan hududdan olib chiqib, toza havoga chiqarish lozim. Uni yotqizib, qo‘l va oyoqlarini biroz ko‘tarilgan holatda joylashtirish, nafas olishiga xalaqit beradigan barcha buyumlarni olib tashlash, ya’ni tugmalarini yechish, yoqasini ochish, kamarini bo‘shatish zarur. Jabrlanuvchining uxlab qolishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak, uni yurgizish esa qat’iyan taqiqlanadi. Agar jabrlanuvchi nafas olmayotgan bo‘lsa, toza havoda yoki yaxshi shamollatiladigan xonada sun’iy nafas oldirishni darhol boshlash lozim. Shuningdek, nashatir spirtini hidlatish, hushiga kelgan paytda yiqilib, jarohatlanmasligi uchun xavfsiz sharoit yaratish talab etiladi. Ahvoli yaxshilangach, issiq choy yoki qahva ichirish hamda imkon bo‘lsa, kislorod yostig‘i yordamida kislorod berish tavsiya etiladi.

Bunday holatlarning oldini olish uchun qator xavfsizlik qoidalariga qat’iy amal qilish shart. Xususan, gaz tarmoqlarini o‘zboshimchalik bilan o‘rnatmaslik, gaz asboblari o‘rnini almashtirmaslik, ularni ta’mirlamaslik, rezina va polietilen quvurlardan foydalanmaslik lozim. Dudburon va shamollatish tizimlarini o‘zboshimchalik bilan o‘zgartirish, yosh bolalarni uyda qarovsiz qoldirish, gaz uskunalari o‘rnatilgan xonalarda uxlash qat’iyan man etiladi. Gaz jihozlaridan quritish yoki boshqa maqsadlarda foydalanish, siqilgan gaz ballonlari yordamida uyni isitish yoki ovqat tayyorlash ham xavfli hisoblanadi. Shuningdek, nosoz, qo‘lbola yasalgan, nostandart, sifat sertifikati va foydalanish qo‘llanmasi bo‘lmagan uskuna hamda jihozlardan, gaz so‘rgich (nasos)lardan foydalanmaslik zarur.


O‘zimiz va o‘zgalar hayotiga befarq bo‘lmaylik, belgilangan xavfsizlik qoidalariga qat’iy amal qilaylik. Zero, inson salomatligi va hayoti bebaho boylikdir.

Mirg‘iyos MAHKAMBOYEV,
Bekobod tumani FVB
FVP katta inspektori, katta leytenant.

SALOMATLIK SABOQLARI

Virusli gepatit “A” — jigarni zararlovchi yuqumli kasallik bo‘lib, u asosan iflos qo‘l, qaynatilmagan suv, toza saqlanmagan oziq-ovqat hamda yuvilmagan meva-sabzavotlar orqali yuqadi. Ayniqsa, bolalar va yoshlar ushbu kasallikka tez chalinuvchi guruh hisoblanadi. Ko‘pincha oddiy beparvolik va gigiyena qoidalariga rioya qilmaslik kasallik tarqalishiga sabab bo‘lmoqda.

SARIQ KASALLIGI: BEPARVOLIK OG‘IR OQIBATLARGA OLIB KELADI



Kasallikning dastlabki bosqichida darmonsizlik, ishtahaning pasayishi, ko‘ngil aynishi, qo‘l-oyoqlarda og‘riq kabi holatlar kuzatiladi. Keyinchalik siydik rangining to‘q tusga kirishi, axlatning oqarishi, ko‘z oqi va terining sarg‘ayishi paydo bo‘ladi. Bunday belgilar aniqlanganda, vaqtni boy bermasdan, darhol shifokorga murojaat qilish zarur.

Virusli gepatit “A”dan himoyalanishda shaxsiy gigiyenaga qat’iy amal qilish muhim ahamiyatga ega. Xususan, qo‘llarni ovqatlanishdan oldin va hojatxonadan keyin sovunlab yuvish, faqat qaynatilgan suv ichish, meva-sabzavotlarni yaxshilab yuvib iste’mol qilish, oziq-ovqat mahsulotlarini toza va yopiq holatda saqlash lozim. Shuningdek, uy-joy, hovli va ish joylarining tozaligini ta’minlash, jamoat joylaridan qaytgach qo‘llarni yuvish kasallikning oldini olishda muhim hisoblanadi.

Mazkur kasallikdan himoyalanishning eng samarali usullaridan biri — vaqtida emlanishdir. Vaksinatsiya orqali virusli gepatit “A” bilan kasallanish xavfi sezilarli darajada kamayadi. Agar kasallik alomatlari paydo bo‘lsa, o‘zboshimchalik bilan davolanmasdan, shifokor tavsiyasiga amal qilish, bemorning boshqalar bilan aloqasini cheklash, alohida idish-tovoq va shaxsiy buyumlardan foydalanishini ta’minlash zarur. Bemor foydalangan buyumlar va yotoq anjomlari qaynatilishi yoki dezinfeksiya vositalari bilan tozalanishi, ovqat esa yengil va hazmga qulay bo‘lishi tavsiya etiladi.

Himoyaning eng ishonchli yo‘li — tozalik, shaxsiy gigiyena va kundalik oddiy qoidalarga amal qilishdir. Beparvolik esa og‘ir oqibatlarga olib kelishini unutmasligimiz zarur.

Temur UMAROV,
Bekobod tuman Sanepid bo‘limi boshlig‘i.

NAZORAT VA TARG‘IBOT

QONUNIY SAVDO — XAVFSIZ HOSIL KAFOLATI



O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi Toshkent viloyati boshqarmasining Bekobod tuman bo‘limi tomonidan tuman hududida faoliyat yuritayotgan mineral o‘g‘itlar hamda o‘simliklarni himoya qilishda qo‘llaniladigan kimyoviy vositalarning ulgurji va chakana savdosi bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlar ishtirokida tushuntirish seminari o‘tkazildi.

Seminarning asosiy maqsadi sohada qonuniylikni ta’minlash, noqonuniy va sifatsiz mahsulotlar savdosining oldini olish, shuningdek, tadbirkorlarning amaldagi qonunchilik bo‘yicha huquqiy bilimlarini oshirishdan iborat bo‘ldi.

Seminar davomida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 481-sonli qarori, xususan, mazkur qarorning 36-ilovasida belgilangan talablarning mazmun-mohiyati batafsil tushuntirildi. Ushbu talablar asosida mineral o‘g‘itlar va kimyoviy vositalar savdosini faqat tegishli litsenziya asosida amalga oshirish mumkinligi, litsenziyaga ega tadbirkorlar esa o‘z faoliyatini belgilangan tartibda olib borishi lozimligi ta’kidlandi.

Shuningdek, nazorat va o‘rganish jarayonlarida aniqlangan qoidabuzarlik holatlariga nisbatan Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga asosan choralar ko‘rilishi, qonunda belgilangan tartibda litsenziyani bekor qilish yuzasidan sud organlariga da’vo arizasi kiritilishi mumkinligi haqida ham ma’lumot berildi.

Seminar yakunida tadbirkorlarni qiziqtirgan savollarga mutaxassislar tomonidan atroflicha javoblar berildi. Bunday tadbirlar qishloq xo‘jaligi sohasida mahsulotlar sifati va xavfsizligini ta’minlash, shuningdek, aholining sog‘lig‘ini muhofaza qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Javlon ARSLONOV,
O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi Toshkent viloyati Bekobod tumani bo‘limi boshlig‘i.

TA’LIM TARAQQIYOTI

SAMARADORLIK VA YUKSALISH SARI

“Dalvarzin” MFY hududida joylashgan 11-umumta’lim maktabi tumanimizdagi eng tajribali va o‘ziga xos salohiyatga ega bo‘lgan bilim dargohlaridan biridir. 1973-yilda tashkil etilgan mazkur o‘quv maskanida hozirda 1200 nafardan ortiq o‘quvchi tahsil olmoqda. Ta’lim sifati va samaradorligiga katta e’tibor berilib, yildan yilga yuqori natijalarga erishilayotgani quvonarlidir.

Maktab jamoasi o‘tgan 2024–2025-o‘quv yilida sezilarli yutuqlarga erishdi. Maktab bitiruvchilarining 38 nafari oliy ta’lim muassasalariga talaba bo‘lishdek sharafga muyassar bo‘lishdi. Bitiruvchi yoshlarning bandligi ta’minlandi. Geografiya, ingliz tili, rus tili fanlari bo‘yicha maktab o‘quvchilari fan olimpiadalarining viloyat bosqichida qatnashib, yaxshi natijalarga erishdilar. “Besh tashabbus” sport o‘yinlarining tuman bosqichida o‘quvchilar 2–3-o‘rinlarga sazovor bo‘lishdi. Sportning karate turi bo‘yicha O‘zbekiston chempionatida qatnashgan maktab sportchilari faxrli o‘rinlarni qo‘lga kiritishdi. Mental arifmetika bo‘yicha maktabning bir nafar o‘quvchisi Osiyo chempionatida ishtirok etdi.

Ma’naviy-ma’rifiy sohada olib borilayotgan ishlar ham reja asosida uzluksiz tashkil etilmoqda. Ayniqsa, Mustaqillik bayramiga, Ustozlar va murabbiylar kuniga, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuniga bag‘ishlab o‘tkazilgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, shuningdek, “Jadidlar izidan” ko‘rik-tanlovining hududiy tuman bosqichi bevosita maktabning o‘zida o‘tkazilgani ko‘pchilikda iliq taassurot qoldirdi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, maktabda ilg‘or pedagogik texnologiyalarning qo‘llanilishiga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘qituvchilar dars jarayonida “4K”, “5E” kabi zamonaviy innovatsion o‘qitish texnologiyalarini samarali qo‘llashmoqda. Informatika fani o‘qituvchilari esa dars jarayonida sun’iy intellektdan unumli foydalanishmoqda.

Ana shunday yutuqlarga erishish o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi. Avvalo, maktab rahbari Tohirjon Majidovning tashabbuskorligi, ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari Mohira Tursunovaning ijodkorligi barcha jabhalarda juda qo‘l kelmoqda. Maktabning ilg‘or pedagoglaridan Maryamxon Samandarova, Dilfuza Abduqodirova, Manzura Majidova, Nigora Mahmudjonova, Soliyaxon Toshmatova, Hamro Saidova, Gulzoda Qurbonova, Muhabbat Parpiyeva, Shahnoza Akromova, Bahodir Mustafoqulov, Ozoda Oqnazarovalarning mehnati tahsinga sazovor.

Maktabda joriy o‘quv yilining II choragi ham muvaffaqiyatli yakunlandi. Jamoa chorak yakuni bo‘yicha 100 foizlik o‘zlashtirishga erishdi. Ta’lim sifatini yaxshilashda yuqori natijadorlik qayd etildi. Iqtidorli o‘quvchilarning ko‘pchiligi, shuningdek, bir qator ilg‘or o‘qituvchilar milliy va xalqaro sertifikatlarga ega bo‘lishdi. Chorak davomida barcha o‘qituvchilar yangi pedagogik texnologiyalar asosida ochiq darslar tashkil etishdi. Xullas, bir so‘z bilan aytganda, maktabda ta’lim sifatiga jiddiy e’tibor qaratilayotgani tufayli yuqori samaradorlikka erishilmoqda, desak ayni haqiqat bo‘ladi.

Biz bilgan farishta, chehrasida fayz,
Tolibi Farhoddir, biri esa Qays,
Siz o‘sha muallim — ustoz Abu Lays,
Olamning ko‘zgusi, ilm zargari,
Yangi O‘zbekiston muallimlari.

Hamisha kasbga sodiq qolgansiz,
Ma’rifat sohibi nomin olgansiz,
Uchinchi uyg‘onish bongin chalgansiz,
Siz ila borgaymiz buyuklik sari,
Yangi O‘zbekiston muallimlari.

Ashurali BOYMUROD.

VATANGA SADOQAT

FAXRIYLAR E’ZOZ VA EHTIROMDA



Yurtimizning tinchligi va farovonligida Ichki ishlar organlari xodimlarining ham o‘rni beqiyos. Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan o‘tkaziladigan barcha tadbirlarda bu tizim xodimlariga ham alohida ehtirom ko‘rsatiladi. Ayniqsa, hayot yo‘lini ichki ishlar sohasiga bag‘ishlab, tizimdan nafaqaga chiqqan faxriylarga.

Bayram sabab Bekobod tumani Ichki ishlar bo‘limi binosida o‘tkazilgan tantanali tadbirda ham tizim faxriylariga o‘ziga xos ehtirom ko‘rsatildi. Tizimdan nafaqaga chiqib, hozirda turli sohalarda faoliyat yuritayotgan, shu asnoda, shogirtlariga o‘z tajribasidan kelib chiqib, yordam va o‘gitlar berib kelayotgan faxriylarga O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining ko‘krak nishonlari tantanali ravishda topshirildi. Taqdirlash jarayonida faxriylar ko‘krak nishonlarini Bekobod tumani Ichki ishlar bo‘limi faxriylari kengashi hamda tuman Nuroniylar kengashi raisi Jalolxo‘ja Bo‘rixo‘jayevning qo‘lidan qabul qilib oldilar.

Shuningdek, taqdirlash marosimida O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri hamda Toshkent viloyati Faxriylar kengashi raisi nomidan tumanimiz Ichki ishlar bo‘limi shaxsiy tarkibi va faxriylariga bayram tabriklari yetkazildi.

Madamin BOYMATOV.

SOG‘LOM AVLOD SARI



MUROJAAT – MAHALLA – YOSHLAR VA SPORT

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida har yili aholimiz o‘rtacha 2 foizga o‘sayotgani, 1 milliondan ziyod o‘g‘il-qizlarimiz katta hayotga kirib kelayotgani hamda yoshlarimiz erishayotgan yutuqlar ularning ulkan bunyodkor kuch ekanligini isbotlayotganini ta’kidlab o‘tdilar.

Mazkur murojaatnomaga asosan yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, mahallalararo yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, kelajak avlodda sportga bo‘lgan qiziqishni rag‘batlantirish, nafaqat o‘z mahallasi va qishlog‘i, balki butun yurtimizni dunyoga tanitishi uchun zamin yaratish maqsadida Bekobod tumanidagi “Xonobod”, “Oltinvodiy” hamda “Ziyoli” mahallalari yoshlar yetakchilari tashabbusi bilan mahalla yoshlari o‘rtasida sportning voleybol turi bo‘yicha musobaqa tashkil etildi.

Musobaqada ishtirok etgan Yoshlar ishlari agentligi Bekobod tumani bo‘limi boshlig‘i I.Bobayev O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Murojaatnomasining mazmun-mohiyati haqida so‘z yuritib, hozirgi kunda “Yoshlarning bo‘sh vaqti — yetakchining ish vaqti!” tamoyili asosida tumandagi 51 ta mahallada yoshlar yetakchilari faoliyat yuritib kelayotganini ta’kidladi. Shuningdek, sportga qiziqishi bo‘lgan yoshlarning iste’dodlarini namoyon etishlari hamda jamoaviy sport turlarida qatnashayotgan yoshlarning muammolarini hal etishda Yoshlar ishlari agentligi doimo ko‘makdosh ekanligini qayd etdi.

Musobaqada qur’a tashlash orqali jamoalar juftligi aniqlandi, bahslar jarayoni hakamlar tomonidan baholab borildi. Yakuniy natijalarga ko‘ra, 1-o‘rinni “Oltinvodiy” mahallasi yoshlar jamoasi, 2-o‘rinni “Ziyoli” mahallasi yoshlar jamoasi, 3-o‘rinni esa “Xonobod” mahallasi yoshlar jamoasi qo‘lga kiritdi. G‘oliblarga tashkilotchilar tomonidan diplom va esdalik sovg‘alari topshirildi.

Dilorom PIRNAZAROVA,
Bekobod tumani “Ziyoli” MFY yoshlar yetakchisi.

“FARHOD” UCHUN YANGI BINO

MAHALLA HAYOTIDAN

Bugungi kunda yurtimizda Prezidentimiz tashabbuslari asosida barcha sohalarda, ayniqsa mahalla tizimida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu o‘zgarishlar aholi turmush tarzini yaxshilash, fuqarolarga qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Mahalla idoralari uchun zamonaviy binolarning qurilayotngani ham ana shunday ezgu ishlarning yorqin namunasi desak bo‘ladi. Tumanimizdagi “Farhod” mahallasida ham shahar tipidagi yangi, zamonaviy mahalla binosining qurilishi boshlab yuborildi. Yangi binoda fuqarolarni qabul qilish xonalari, majlislar zali, yoshlar va ayollar uchun alohida ish xonalari tashkil etilishi rejalashtirilgan.

Ushbu bino mahalla faollari, nuroniylar, yoshlar va xotin-qizlar bilan ishlash uchun qulay muhit yaratishga xizmat qiladi.

Sardorbek ISMOILOV,
Bekobod tumani “Farhod” MFY hokim yordamchisi.

MAKTABDAN TASHQARI TA’LIM

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-sentyabrdagi “Maktabdan tashqari ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–277-son qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, maktabgacha va maktab ta’limi sohasida maktabdan tashqari ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ularni zamonaviy yondashuvlar asosida rivojlantirish orqali bolalarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli va samarali tashkil etish maqsadida “Barkamol avlod” bolalar maktabi negizida “Kelajak” markazlari tashkil etildi.

“KELAJAK” MARKAZI FAOLIYATINI BOSHLADI



“Kelajak” markazi nafaqat bilim berish, balki bolalarda o‘ziga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash, intizom, mas’uliyat hamda jamoada ishlash kabi muhim fazilatlarni rivojlantirishni ham maqsad qilgan. Har bir o‘quvchiga individual yondashuv markaz faoliyatining asosiy tamoyillaridan biridir.

“Kelajak” markazi 7 yo‘nalishda: “Madaniyat va san’at”, “Texnika, konstruktorlik va modellashtirish”, “Hunarmandchilik va qo‘l mehnati”, “Turizm va ekologiya”, “Jismoniy tarbiya va sport”, “Oliy ta’lim va maktabga tayyorlov”, “Xorijiy tillar” yo‘nalishlarida faoliyat olib boradi.

Markazda to‘garaklar pullik shaklda tashkil etilib, 6–18 yoshli bolalarning har tomonlama kamol topishi va bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishi uchun keng imkoniyatlar yaratilgan.

Markazda faoliyat yuritayotgan 34 nafar pedagog xodim to‘garaklarda o‘quvchi yoshlar qamrovini oshirish, turli madaniy-ommaviy tadbirlarni samarali o‘tkazish, ta’lim jarayonini innovatsion metodlar asosida tashkil etish, to‘garak a’zolariga qo‘shimcha ta’lim berish hamda o‘quvchilarning iqtidorini yuzaga chiqarish maqsadida tinmay o‘z ustida ishlab kelmoqdalar.

Maqsadimiz — markazga kelayotgan har bir to‘garak a’zosi bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazib, har kuni yangi bilim, yangi fikr va yangi g‘oyalar bilan qaytishidir. Ertaga kim bo‘lishi, o‘zini qaysi kasbda ko‘rishi yoki qaysi hunarni egallashi borasida javobni aynan shu markazda topsin. To‘garak rahbarlaridan bilim olib, o‘z kelajagini qurishda mas’uliyat va burch hissini to‘la anglasin.

Xulosa qilib aytganda, “Kelajak” markazi — bolalar kelajagi uchun mustahkam poydevor yaratiladigan, bilim va tarbiya uyg‘unlashgan maskandir. Farzandining kelajagi porloq bo‘lishini istagan har bir ota-ona uchun ushbu markaz ishonchli va to‘g‘ri tanlov.

Hurmatli ota-onalar! Farzandingizni qiziqishlari va ehtiyojlariga ko‘ra ularning ijodiy imkoniyatlarini yanada rivojlantirishga qaratilgan maktabga tayyorlov, ilm-fan, xorijiy tillar, kitobxonlik, madaniyat va san’at, kasb-hunar, axborot texnologiyalari hamda sport yo‘nalishlarida tashkil etilgan to‘garaklarga yo‘naltirishingizni, farzandingiz kelajagiga befarq bo‘lmasligingizni so‘rab qolamiz.

Zohida SUVONOVA,
“Kelajak” markazi direktori.

SPORT HAYOTIDAN

BEKOBODDA VILOYAT KUBOGI BELLASHUVLARI



Bekobod tumanida gandbol sport turi bo‘yicha U-14 yosh toifasida Toshkent viloyati kubogi musobaqasi bo‘lib o‘tdi. Unda viloyatning turli tumanlaridan kelgan qizlar va o‘g‘il bolalar jamoalari ishtirok etib, murosasiz bahslarda o‘z sport mahoratlarini namoyish etdilar.

Mazkur musobaqa Toshkent viloyati sport boshqarmasi, Toshkent viloyati gandbol federatsiyasi hamda Bekobod tuman Sport maktabi hamkorligida tashkil etildi. Bellashuvlar U-14 yoshgacha bo‘lgan qizlar va o‘g‘il bolalar o‘rtasida o‘tkazilib, yosh sportchilarning jismoniy imkoniyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Quvonarlisi, tumanimizning qizlar jamoasi musobaqada munosib ishtirok etib, yakuniy natijalarga ko‘ra mutlaq g‘oliblikni qo‘lga kiritdi.

Qizlar o‘rtasida bo‘lib o‘tgan musobaqa natijalari:
1-o‘rin – Bekobod tumani;
2-o‘rin – Ohangaron tumani;
3-o‘rin – Quyi Chirchiq tumani.

O‘g‘il bolalar o‘rtasida bo‘lib o‘tgan musobaqa natijalari:
1-o‘rin – Piskent tumani;
2-o‘rin – O‘rta Chirchiq tumani;
3-o‘rin – Quyi Chirchiq tumani.

Musobaqada g‘olib va sovrindor bo‘lgan sportchilar Toshkent viloyati terma jamoasi tarkibiga jalb etilib, O‘zbekiston kubogi musobaqasida ishtirok etish huquqini qo‘lga kiritdilar.

Musobaqa davomida yosh gandbolchilar o‘zaro do‘stlik va jamoaviylik ruhini namoyon etish bilan birga, yuqori darajadagi sport mahoratini ko‘rsatdilar. Ushbu musobaqa yoshlarni sportga keng jalb etish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish hamda viloyatda gandbol sportini yanada rivojlantirishga xizmat qildi.

Jahongir SULTONOV,
Bekobod tuman Sport maktabi yo‘riqchi-uslubchisi.

PEDAGOG MINBARI

ILG‘ORLAR SAFIDA



Joriy o‘quv yilida Bekobod tumanidagi 45-umumta’lim maktabi o‘quvchilari fan olimpiadalarida qo‘lga kiritgan yuqori natijalari orqali ta’lim muassasasining ilmiy salohiyati va pedagogik jamoa mehnati samaradorligini yaqqol namoyon etdi.

Geografiya fanidan ikki nafar iqtidorli o‘quvchi tuman bosqichida g‘oliblikni qo‘lga kiritib, viloyat bosqichida ham munosib ishtirok etdi. Natijada ular 1-2-o‘rinlarni egallab, respublika bosqichiga yo‘llanma olishga muvaffaq bo‘lishdi. Ushbu yutuqlar o‘quvchilarning puxta bilimga ega ekani va maqsad sari qat’iyat bilan intilayotganidan dalolat beradi.

Informatika fanidan ikki nafar o‘quvchi viloyat bosqichida qatnashib, zamonaviy axborot texnologiyalari bo‘yicha yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega ekanini namoyish etdi. Tarix fanidan esa bir nafar o‘quvchi viloyat bosqichiga chiqib, tumanimiz sharafini munosib himoya qildi.

Mazkur natijalarga erishishda tarix fani o‘qituvchisi X.Turdiboyev, oliy toifali geografiya fani o‘qituvchisi D.Norqulova hamda 1-toifali informatika fani o‘qituvchisi S.Ermatovlarning fidokorona mehnati va kasbiy mahorati muhim ahamiyat kasb etdi.

Ta’kidlash joizki, bunday muvaffaqiyatlar ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar hamda ustoz va shogirdlar hamkorligining amaliy natijasidir. Bu yutuqlar maktabda ta’lim sifati barqaror rivojlanib borayotganidan dalolat beradi. 45-umumta’lim maktabi jamoasi kelgusida ham iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularni ilm-fan sari ruhlantirish va yangi marralarni zabt etish yo‘lida faoliyatini davom ettiradi.

Muqaddam PARDABOYEVA,
Bekobod tumani 45-umumta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.

BOLA SHAXSIYATIGA HURMAT – TA’LIMNING ASOSI

Bola - shaxsdir. U o‘z fikri, his-tuyg‘usi, orzulari va qadr-qimmatiga ega inson. Ta’lim jarayonida o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki shaxsni tarbiyalovchi muhim omildir. Bola o‘zini hurmat qilinayotganini, tinglanayotganini va qadrlanayotganini his qilganida, unda o‘qishga bo‘lgan qiziqish, o‘ziga ishonch va kelajakka intilish kuchayadi.

Bugungi ta’lim tizimida bola shaxsiyatiga hurmat bilan yondashish o‘qituvchining eng muhim kasbiy fazilatlaridan biridir. Har bir o‘quvchi o‘ziga xos dunyoga ega. Shu sababli ta’lim jarayonida uning ichki kechinmalarini tushunish, individual yondashuvni qo‘llash va imkoniyatlarini to‘g‘ri yo‘naltirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bola bilan muloqotda hurmat va e’tibor ustuvor bo‘lishi zarur. O‘qituvchi o‘quvchining fikri, savoli yoki tashabbusini qadrlay olsa, bola o‘zini “eshitilgan” va “qadrli” deb his qiladi. Bu esa dars samaradorligini oshiradi. O‘qituvchining har bir so‘zi, ohangi va munosabati bola qalbida muhim iz qoldiradi.

O‘quvchi xato qilgan holatlarda uni kamsitmasdan, sabr bilan tushuntirish va to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish muhimdir. Buyruq ohangidagi yondashuv o‘rniga



hamkorlikka asoslangan munosabat ijobiy natija beradi. Bunday muhitda bola o‘z fikrini erkin bildiradi va o‘z ustida ishlashga intiladi.

Xulosa qilib aytganda, bola shaxsiyatiga hurmat – ta’limning yuragi, tarbiyaning ildizi va insoniylikning aksidir. O‘qituvchi har bir so‘zi, harakati va qarashida bolaga hurmatni ifoda etsa, bu nafaqat dars jarayonini samarali qiladi, balki o‘quvchining o‘ziga va hayotga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, hurmatga asoslangan munosabat bola ichki dunyosini erkin rivojlantirishiga, fikrini ochiq bildirishi va jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga yordam beradi.

Muqaddas SIROJIDDINOVA,
Bekobod tumani 8-umumta’lim maktabi amaliyotchi psixologi.

SHE’RLARIM – DA’VATLARIM



Nurali JALIL – shoir, O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi a’zosi. 20 yildan buyon tuman qalamkashlarini birlashtirgan “Ilhom” ijodkorlar klubi rahbari. Har yili nashr etib kelinayotgan “Sir bo‘yi ilhomlari” adabiy to‘plamining 9 ta sonining muallifi. “Yashasin, sevgi!”, “Gavharim”, “Istiqlol dostoni” kabi kitoblari chop etilgan. O‘zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripov haqidagi xotiralarga bag‘ishlangan “Ustoz o‘gitlari” nomli kitobi “Yangi asr avlodi” nashriyotida nashrdan chiqish arafasida.

YASHASH KERAK

Qaddingni bukdimi g‘am-tashvish yuki,
Qo‘l siltab ketdimi omading yoki,
Umiddan bir uchqun bor ekan toki,
Ketdik, yashash kerak, birodar.

Ko‘rding-ku insonning ming turfa turin,
Turlanish sababin anglay bil, urin,
Nomard-u nokasga yem bo‘lmay burun,
Intil, yashash kerak, birodar.

Bu umr yo‘llari emaskan ravon,
Dovonlar ketidan kelarkan dovon,
Zinhor o‘tgan kuning demagin yomon,
Ulgur, yashash kerak, birodar.

Charxi dun to‘xtamas, hayot davomiy,
Kimga shayton homiy, kimga pir homiy,
Olti asr, bo‘zlab kelar Navoiy,
Chida, yashash kerak, birodar.

Imkon qo‘lingdadir, boymisan-faqir,
Tashvishga qul bo‘lma, tur, qatorga kir,
To‘xtama, o‘ylanma, intil, yur, yugur,
Tinma, yashash kerak, birodar.

Niyat qil, Yaratgan bizlarni qo‘llar,
Nazar sol, guliston bo‘lmoqda cho‘llar,
Bizni chorlayotir ulug‘vor yo‘llar,
Qo‘zg‘al, yashash kerak, birodar.

Qalb ko‘zing katta och, hayotni kuzat,
To‘rt muchang sog‘ bo‘lsa yarashmas uzlat,
Tur endi o‘rningdan – qo‘lingni uzat,
Ketdik, yashash kerak, birodar!

DA’VAT

Dunyo deb qaygadir shoshgan odamlar,
Goh sokin, gohida toshgan odamlar,
Ba’zida haddidan oshgan odamlar –
To‘xtang.

O‘zin chetga olib davron yukidan,
Bir bor xabar olmay aka-ukadan,
Kibrga ketganlar munkib mukkadan –
To‘xtang.

Davralarda turfa mahmadonalar,
El-yurtning dardiga yot, begonalar,
Xudbinlar, loqaydlar, ham devonalar –
To‘xtang.

Ko‘z ochiq, qalb so‘qir, vijdonli karlar,
Na tanbeh, nasihat qilmagan korlar,
Umri hayf, yoshi hayf, kuni bekorlar –
To‘xtang.

Ishing tushsa turqi sarosimada,
Ko‘rinmay mahalla marosimida,
Tuban ketuvchilar qaro zinadan –
To‘xtang.

Ko‘rdingiz yaxshi-yu yomon ko‘pini,
Bir parcha surpni ketdi yopinib,
Boshdan olib qo‘yib endi do‘ppini –
O‘ylang.

Tikilib manglayda bitgan yoziqqa,
Ming bor tavbalar deng faqat Roziqqa,
Nafsingiz otini endi qoziqqa –
Boylang.

Yetaklang shu yurtning bitta norini,
Tuying chechaklarin hid, iforini,
Shahari, qishlog‘i, lolazorini –
Bo‘ylang.

Shukr aytib har kungi munavvar tongga,
Zora siz ham kirib qatorga, songa,
Suyuk bo‘larmisiz shunday Vatanga –
So‘ylang!

SAFLAN

Mustaqil yurt o‘g‘lonlari,
Bilakda kuch to‘lg‘onlari,
Mard va abjir polvonlari,
Toki qalbing yurt deb yonur –
Rostlan yigit, saflarga tur!

Askar, zobit, o‘g‘lon o‘zing,
Azamat ham sog‘lom o‘zing,
Himoyaga chog‘lan o‘zing,
Yurakda o‘t, dilda surur, –
Rostlan yigit, saflarga tur!

To‘marislar tutgan bayroq,
Dushmanlarni yenggan Shiroq,
Daryo guvoh, sahro guvoh,
Tarix bizga yo‘l ko‘rsatur –
Rostlan yigit, saflarga tur!

Mo‘g‘ullarning berib dodin,
Yov ustiga soldi otin,
Bo‘yin egmadi Jaloliddin,
Sen ham el bo‘l, yovqur, jasur,
Rostlan yigit, saflarga tur!

Tomiringda oqajak qon,
Bobomning deb his et, inon,
Yengilmagan sohibqiron,
Buyuk bobom Amir Temur –
Rostlan yigit, saflarga tur!

O‘zga yurtda qolgan bag‘rim,
Mangu shonim, mangu faxrim,
Generalim Sobir Raxim,
Tuydim g‘urur, tuydim g‘urur,
Rostlan yigit, saflarga tur!

Zamona tinch, tiniq osmon,
O‘zing qalqon, o‘zing posbon,
Kim tosh otsa bizga qastdan,
Adashma hech, nishonga ur,
Rostlan yigit, saflarga tur!

Madhiyamiz yangrar tongdan,
Shu Vatanni sevdik jondan,
Sobit tursa Bosh qo‘mondon
O‘zbekiston manguga hur –
Rostlan yigit, saflarga tur!

OSMON – MENING DAFTARIM

Yulduzlarning sanog‘i yo‘q,
Koinotning poyoni.
Nega minglab sitoralar,
Bezab turar samoni.

Men yulduzlar shoiriman,
Osmonlarga ko‘z tutgan.
Somon yo‘ldan o‘tganlarga
She’ri bilan so‘z tutgan.

Menga Zuhro, Mirrih, Zuhal
Ko‘zin tutgan mahallar
Shu’la bo‘lib quyiladi,
So‘zlar, she’r-u g‘azallar.

Rubobimni chalib xushnud,
Ruboyilar to‘qiyman.
Oy nurida she’rlar yozib,
Kun chiqqanda o‘qiyman.

Minglab yulduz derazamdan
O‘tar milt-milt mo‘ralab.
Men ularga she’r bitaman,
Sevib, suyub, saralab.

Bir kun men ham shu osmondan
Yulduz bo‘lib ucharman.
O‘shanda ham hammangizni
Ruhim bilan qucharman.

Men intilgan samolarga
Oy va quyosh tarozi.
O‘n sakkiz ming olamlarga,
Ketar she’rim ovozi.
Men yulduzlar shoiriman,
Osmon – mening daftarim.
Daftarimni ochib meni,
Eslab turing do‘stlarim.

O‘G‘ILOYLARGA



Tantilikni yolchitmay
Epsiz bo‘lsa yigitlar,
Jur’at qolib panada
Nozlar bo‘lsa ustuvor,
Elning o‘g‘li qolib qiz
Ko‘zida yonsa o‘tlar,
O‘g‘il yo‘q oilada
Menman degan qizi bor.

O‘nta bo‘lsa o‘rni bor,
Maqol to‘qib xattoki,
Hammasini erkalab
Jonidan suyadilar.
Kuta-kuta o‘g‘ilni
Beshinchisin va yoki
Oltinchisin ismini
O‘g‘iloy qo‘yadilar.

O‘g‘iloylar o‘sadi,
Qizlar ichra o‘g‘ildek.
O‘g‘illar davrasida
Yuradilar oy bo‘lib,
Serfarzand o‘zbek esa
Ko‘ksini kerar birdek,
O‘g‘iloy ismin olgan
Bekqizlarga boy bo‘lib.

Sherdan sherlar tug‘ilib
Loladan unib lola,
Davom etar nasl ham
Davom etar shajara.
Toy bola deb tuqqaning
Chiqib qolsa voy bola - ??
O‘g‘il toylar ishini
O‘g‘iloylar bajarar.

Ming afsus, yigitlar bor
Ularga nom, savlat hayf.
Mard bo‘lib tosh ko‘tarmas,
Nard o‘ynab tosh otarlar.
Ish desa bemor bo‘lib,
To‘ylarda surishib kayf,
Xudoning bergan kuni
Belangi bo‘b yotarlar.

Xali ham o‘zing tanti
Zukkosan o‘zing xalqim.
Jismga mos ismni
Xo‘p o‘ylab topadirsan.
Har bitta hodisotni
Zehningla qilib talqin,
Yigitlarning aybini
Ismila yopadirsan.

Tantilikni yolchitmay,
Epsiz bo‘lsa yigitlar.
Ularga har bir go‘sha,
Har bir davra tor bo‘lsin.
Ko‘zida yulduz chaqnab,
Ko‘ksida yonib o‘tlar,
Yigit o‘rnini bosgan
O‘g‘iloylar bor bo‘lsin!

JARAYONDA

Hikoya



Bu yil mamlakatga tushgan shamolning nomi bir xil edi — sertifikat. Bu shamol xonadonlarga kirar, maktablar yo‘laklarida kezib yurardi. Odamlarning ko‘zida bitta savol, yuragida bitta hayajon — my.gov. Nozima ham shu girdob ichida edi.

U ona tili fanidan sertifikat olish uchun imtihon topshirgan kuni o‘zini yengil sezgan, ammo oradan bir necha soat o‘tgach, yuragi nimagadir bezovta ura boshlagan edi. Qiziq, inson orzu qilgan narsa unga eng ko‘p qo‘rquvni ham berar ekan.

Sinfdagilar ham xuddi u kabi edi. Odamlar masalaning yechimini emas, natijaning sanog‘ini o‘ylardi. Kimdir matematikaga sho‘ng‘igan, kimdir ingliz tilidan lug‘at yodlar, yana biri telefon ekranini qimirlamay kuzatardi.

Bir kuni Nozima ajoyib tush ko‘rdi. Tushida B daraja olganmish. Ertasi kuni dugonasi Nafisa uning yoniga kelib gap boshladi:

— Nozi… kecha yomon tush ko‘rdim. Ingliz tilidan sertifikat ololmapman. Yomon holat bo‘libdi.

Nozimani yanada qo‘rquv bosdi. Dunyoda bitta so‘z bor — kutish. U odamni imtihondan ko‘ra ko‘proq sinaydi. Kunlar shu kutish bilan o‘tardi. Atrofda gap-so‘zlar: “falonchiga chiqibdi”, “bu sahifa ishlamayapti”, “kimdir yig‘labdi”… Bularning hammasi odamlarning ichiga qo‘rquv urug‘ini separdi.

Erta tong yog‘dularini ko‘rsatdi. “Tring” etdi-yu, telefonga bir xabar keldi. Ekrandagi xabarning yonib-o‘chishi ularning yuragini ham shu tezlikda urdirardi. Ular uzoq qarab qoldi. Hech kim uni ochishga jur’at etmadi. Bu oddiy xabar bo‘lishi ham mumkin edi. Yoki sertifikat natijasi.

Quyosh ham botdi. Tunda shamol ham to‘xtadi. Xona ichida sukut suzardi. Hamma narsa shu kichkina narsa ustida aylanayotganday edi.

— Nozima, bu natijami? — dedi Nafisa zo‘rg‘a.

Nozima javob bermadi. Faqat nafasini ichiga olib, telefonni mahkamroq ushladi. Barmog‘ini sahifa ustiga bosdi. Natija esa hali chiqmagan ekan.

Jasmina ISMOILJONOVA, Bekobod tumani 2-umumta’lim maktabi o‘quvchisi.

Ijodkor nigohi

MEHNATGA FIDOYI INSON

Ba’zan inson bilan bir lahza uchrashib, unga nisbatan qalbingizda qanday chuqur hurmat uyg‘onganini o‘zingiz ham sezmay qolasiz. Uning oddiy jilmayishi, samimiy kulgusi, hayotiy saboqlarga boy so‘zlari sizda cheksiz ehtirom tuyg‘usini uyg‘otadi. Bugun ana shunday ulug‘ inson haqida so‘z yuritamiz.

Mahallamizning fidoyisi bo‘lgan bu inson nafaqat yoshi ulug‘ligi, balki halol mehnati bilan ham barchaga o‘rnakdir. Har bir mahallada hayot yo‘li, fidoyiligi va oilasining mustahkamligi bilan boshqalarga namuna bo‘la oladigan insonlar bo‘ladi. Qahramonimiz ham ana shunday hurmatga sazovor insonlardan biridir.

Yoshi saksondan oshgan bo‘lishiga qaramay, Yusuf bobo Orziyev hayot yo‘li davomidagi sabr-bardoshi va mehnatsevarligi bilan namunali shaxs sifatida tanilib kelmoqda. Yusuf bobo farzandlarini uyli-joyli qilib, har birining hayotda o‘z yo‘lini topishiga tirgak bo‘lgan.

Farzandlarining eng kattasi yirik sohalarda faoliyat yuritadi, qolganlari ham mehnatsevar. Kelin-u nabiralari mehribon, samimiy bo‘lib, bir-biriga g‘amxo‘rlik ko‘rsatib, yordamlashib yashaydi. Bu oila farzandlari hech qachon bir-birini tark etmasligi hamda ahil va inoqligi bilan ajralib turadi.

Yusuf boboning xonadoni ham mahalladagi eng namunali, havas qilsa arziydigan xonadonlardan biridir. Hayot sinovlari ustozimizni suyukli umr yo‘ldoshidan judo qilgan bo‘lsa-da, bobomiz hanuz rafiqasiga sadoqat bilan yashab kelmoqda.

Yusuf bobo Orziyevning oilasi bizga shuni anglatadiki, insonni ulug‘laydigan narsa uning yoshi emas, balki ortda qoldiradigan ezgu amallari, halol mehnati va oilasiga singdirgan mehridir. Bunday fidoyi insonlar bor ekan, mahallalarimiz barakali, jamiyatimiz mustahkam va kelajak avlod uchun ibratli bo‘lib qolaveradi.





Islombek ERGASHALIYEV, Bekobod tumani 2-umumta’lim maktabining 5-sinf o‘quvchisi.

E’LON

Bekobod tumani Yo‘llardan foydalanish korxonasi davlat muassasasiga tegishli bo‘lgan yumaloq muhr yo‘qolganligi sababli haqiqiy emas deb topilsin.

QADRI BALAND MILLATIM

Dilni xush qilguvchi soylaring bordir,
Oh, ajib tabarruk joylaring bordir,
Ko‘kda kulgan yulduz, oylaring bordir,
Qadri baland bo‘lgan buyuk millatim.

Hurliging abadiy bo‘lsin vatanim,
Sen borsan omondir, mening jon-tanim,
Qayda bo‘lmay g‘urur, nomusim manim,
Qadri baland bo‘lgan buyuk millatim.

Qadimdan bek bo‘lgan, xosdir o‘ziga,
Aytgani, qilgani mosdir o‘ziga,
Arslonsifat har bir aytgan so‘ziga,
Qadri baland bo‘lgan buyuk millatim.

Sen asli Temurning qoni, avlodi,
Qalbimdan o‘chmaydi buyuklar yodi,
Yozganim she’r emas yurak faryodi,
Qadri baland bo‘lgan buyuk millatim.

Dilnavoz NORMURODOVA, Bekobod tumani 33-umumta’lim maktabi o‘quvchisi.

QONUNCHILIKDAGI YANGILIK

Sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda shaxsga doir ma’lumotlarga qonunga xilof ravishda ishlov berish, ularni OAV-lar, telekommunikatsiya tarmoqlari yoki Internet jahon axborot tarmog‘ida tarqatish ma’muriy huquqbuzarlikni sodir etish qurollarini musodara qilib, BHMning 50 baravaridan 100 baravarigacha (41,2 mln. so‘mgacha) jarima solishga sabab bo‘lishi belgilandi.

Manba:

Huquqiy axborot telegram kanali.

YANGI BEKOBOD
Muassis: Bekobod tumani hokimligi

Bosh muharrir
Sarvinoz SHERALIYEVA

Manzilimiz:
"Zafar" shaharchasi, hokimiyat binosi, 3-qavat.
tel: (998) 55 902 59 94
elektron manzilimiz:
E-mail: yangibekobod@umail.uz

Toshkent viloyati Matbuot va axborot boshqarmasida 2011-yil 12-sentyabrda 03-023 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr ko'rsatkichi 7013.
Gazeta tahririyat kompyuter bazasida terilib, sahifalandi. Buyurtma №
Adadi 1700 nusxa. "NISO NASHRIYOT VA MATBAA UYI" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Korxona manzili: Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumani,"Oq ota" Q.F.Y. "Mash'al" mahallasi, Markaz -1
Bosishga topshirish vaqti: 10:00.
Bosishga topshirildi: 11:00.

Sahifalovchi-dizayner
Shohida TO'RAQULOVA

ISSN 2091-5497